

Bolalar Muqaddas Kitobi Tasvirlab beradi

Sevimli O'g'ilning qulga aylanishi



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan: Byron Unger; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan: M. Kerr; Sarah S.

60 ta hikoyadan 7-si

www.M1914.org

Bible for Children, PO Box 3, Winnipeg, MB R3C 2G1 Canada

Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin. Lekin u sotilmaydi.

O'zbekcha


Uzbek

Ishoq juda bahtli edi. Uning O'g'li Yoqub otasining uyiga qaytib kelgan edi. Hatto, uni bir paytlar o'ldirishga ahd qilgan akasi Esov, Yoqubni yahshi kutib oldi. Ammo Yoqubning o'g'illari hursand emas edilar chunki ularning ukasi Yusuf, otasining sevimli o'g'li edi.



1


Yusuf akalariga, ko'rgan tushlarini aytib bergandan keyin, uning akalari, uni yanada yomon ko'rib qolishdi.



2


Yusuf ularga: "Tushimda bizlar ekinzorda bog'lam bog'layotgan ekanmiz, qarasam mening bog'lamim yerdan ko'tarilib, tik turgan ekan, sizlarning bog'lamlaringiz esa davra olib, mening

bog'lamimga ta'zim qildi" - dedi. Bu tushning ma'nosi, Yusuf akalarining ustidan podshoh yoki hukmron bo'lishi edi.




3

Yusufning ikkinchi tushida, quyosh va oy hamda 11 yulduz unga ta'zim qilayotgan ekan. Yusuf buni akalari va otasiga aytib bergandan keyin, hatto otasi bunga g'azablanib uni koyidi va unga: "Nahotki men, onang va akalaring sening oyoqlaringga yiqilib ta'zim qilsak?" - dedi.




4

Bir kuni Yoqub Yusufni dalaga yubordi, u yerda uning akalri mol boqishayotgan edi. Akalari uning kelayotganini ko'rib: "mana tush ko'ruvchi kelayapti, kelinglar uni o'ldiramiz" - dedilar. Ammo Yusuf bu havf-hatarni bilmas edi.



5

Ammo Ruben Yusufni ularni qo'lidan qutqarmoqchi bo'lib ularga: "Uning joniga qasd qilmaylik. Qon to'kmanglar, uni mana shu yaqindagi cho'l qudug'iga tashlasalring bo'ldi, faqat uni o'ldirmanglar" - dedi.



6

Yusuf akalari yoniga kelganda, akalari uni ushlab, ustidagi beqasam to'nni yechib, uni quduqning ichiga tashlab ketishdi.



7


Ruben yo'qligida, Midyondan savdogarlar karvoni o'tayotgan edi. Ular Yusufni quduqdan tortib chiqardilar va 20 kumush tangaga sotdilar.



Savdogarlar esa Yusufni Misrga olib ketdilar.

8

Bechora Yusuf o'zining uyi va ona-vatanidan uzoq Misrga olib ketildi. U yig'ladi va o'zini yordamsiz his qildi.



9

Shunda aka-ukalari Yusufning beqasam to'nini olib, otalari oldiga borib: "biz buni topdik, bu o'g'lingizning cho'poni, uni yirtqich hayvon yegan" - dedilar. Yoqub cho'ponni tanib, o'g'li uchun motam tutdi. Hamma o'qil-qizlari unga tasalli berishdi lekin Yoqub ovunishni rad qildi.




10

Yusuf Misrda o'zini yolg'iz, qo'rqgan his qilar edi. U o'z uyini sog'inar edi ammo u Misrdan hech qayerga qocholmas edi, chunki saroy ma'muri Po'tifarga qul qilib sotilgan edi. Hudovand Yusuf bilan birga edi, buni Po'tifar ham angladi.



11

Shunda u Yusufga: "sen qo'l urgan har qanday ishga omad keladi. Men seni honadonim, uy va dashtdagi hamma narsam ustidan bek qilib tayinlayman" - dedi.



12

Hudovand Yusuf tufayli Po'tifarning honadonini barakali qildi. Shunday qilib Yusuf Po'tifarning uyida boshqaruvchi bo'lib hizmat qilar edi. Ammo oradan bir muddat o'tgach Yusufning boshiga qiyinchiliklar keldi.



13

Po'tifarning hotini Yusufga ko'zini tikadigan bo'ldi, ammo Yusuf esa ho'jayinining hotinini rad etdi va Hudoga qarshi gunoh qilmadi.




14

Kunlarning birida Yusuf uy ishini qilish uchun uyga kirdi. Hotin Yusufning jomasini ushlab u bilan gunoh qilmoqchi edi. Lekin Yusuf jomasini ayolning qo'lida qoldirib, tashqariga qochib ketdi.



15

Po'tifar qaytib kelgandan keyin uning hotini unga: "Yusuf menga hujum qilmoqchi edi" - deb yolg'ondan arz qila boshladi. Po'tifar Yusufga ga'zablendi.



16

U Yusufni ushlab, podshohning mahsus zindonidagi qamoqxonaga qamatib qo'ydi. Lekin Yusuf begunoh edi.



17

Lekin Hudovand Yusuf bilan birga edi va Yusuf u qayerda bo'lmasa ham Hudo u bilan birga ekanini anglab tushundi. Hudovand Yusufni hatto zindonda ham ehson qilar edi.



18

Sevimli O'g'ilning qulga aylanishi

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Ibtido 37-39 boblar

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."
Zabur 119:130

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim.

Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Endi Hudo bizni gunohlarimizni Iso tufayli kechira oladi.

Agar siz gunohlaringizdan ozod bo'lishni istasangiz, Hudoga shunday deb ayting: "Mehribon Hudo, Men Iso mening gunohlarim uchun o'lganiga ishonaman, iltimos mening hayotimga kel, va mening gunohlarimni kechir, men yangi hayot bilan yashashim uchun va Sen bilan abadiy bo'lishim uchun menga yordam bergin. Men Sening frazanding bo'lishimga yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!